



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 326 sahifa,
6-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
Omonova Nilufar Parda qizi	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
Xujanova Shaxina Abdullayevna	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari	24
Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
Ramazonova Bahroy Sadriddinovna	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionallashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
Nuraliyeva Dilshoda Yo'ichiboy qizi	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
V. Sh. Raximov	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni	46
Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli	51
Vasila Yusupova	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish	55
B. X. Sharopov	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi	59
Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari	67
Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
S. A. Qarshiboyev	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
Suyunov Rustam Sadriddinovich	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari	78
Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
Umarov Azizbek Vaxobovich	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashda Ahmad al-Farg'oniy asarlarini kompyuter imitatsion modellari asosida o'qitish metodikasi.....	89
S. S. Qulmurodova	
Enhancement of Periodontal Disease Management Strategies in Individuals With Chronic Hepatitis C Following Attainment of a Sustained Virological Response.....	92
Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna	



Epithelial-Mesenchymal Transition's Possible Role in the Pathogenesis of Periodontitis (Literature Review).....	95
Burkhonova Zараfruz Kobilovna	
Gamifikatsiya asosida bo'lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari mexanizmini tatbiq etish	102
Bozorboyev Javlon	
Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari.....	106
Jamilova Dilsuza To'lqin qizi	
Elektrir va magnit maydonida yorug'likning ikkilamchi sinishi.....	110
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Alimardonov Husan Yorqin o'g'li, Ismatullayev Sayfiddin Panji o'g'li	
Lazer texnologiyalarining zamonaviy qo'llanilishi	114
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Muminova Sevinch Kamoliddin qizi, Begnayeve Dilbar Bobonazar qizi	
Fotometrik kattaliklar	117
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Mamatqulova Zebo Komiljon qizi, Xolmaxmatova Sevara Sirojiddin qizi	
Qutublangan yorug'lik manbalari	121
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Turdimurodova Kumushbibi, Normuminova Madina	
Tabiatdagi optik hodisalar	125
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Qudratova Sevinch Otabek qizi, Ulasheva Ruxshona Rustam qizi	
Rus tilini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan innovatsion yondashuvlardan foydalanish	129
Erkinova Nozima Utkir qizi	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini tadqiq etishning ilmiy-metodologik tahlili	133
Ikmatullayev G'. Z.	
Raqamli ta'lim platformalarida matematika o'qitishda sun'iy intellekt yordamida baholash tizimini takomillashtirish	136
Mirzayeva Shahlo Abduraxmanovna, Akbarov Ulug'bek, Abdivaliyeva Umida	
Linguistic and Pedagogical Foundations of Teaching English as a Foreign Language in The Uzbek Context.....	140
Shokirova Mushtariy	
Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi transformatsion roli	144
Uzoqboyev Xojiakbar Qobuljon o'g'li	
Enhancing Collaborative Learning and Peer Feedback in EFL Classrooms Through Padlet: a Digital Approach to Group Work and Assessment.....	148
Veronica Khatamova	
Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning rasmlar asosida aqliy faoliyatini rivojlantirishning vizual-didaktik texnologiyalarini takomillashtirish.....	152
Meliqo'ziyev Abduraxmonjon Qahramonjon o'g'li	
Emotsional intellekt – hr menejerlarning qaror qabul qilish kompetensiyasining determinanti sifatida	157
Abdukarimov Muhammadjon Muratovich	
O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli-pedagogik modeli: nazariya, metodologiya va amaliyot	162
Islamova Fotima Shamsiddinovna	
Barkamol yosh avlod fazilatlarini shakllantirishda milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni.....	170
Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna	
Development of Prevention of Professional-Pedagogical Deformation on the Basis of Health-Saving Technologies in Higher Educational Institutions.....	174
Saidova Parvina Mirzo kizi	
O'zbek xalq pedagogikasi mazmuni asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy nazariy asoslari	178
Rahmonqulova Guliza Faxriddin qizi	

Bolalarning maktabgacha yosh davrida emotsional rivojlanishiga oid nazariy qarashlar tavsifi.....	182
<i>Abduraxmonova Gulmira Arapjon qizi, Yuldasheva Umida Maxmudovna</i>	
Alohida ehtiyojli bolalar uy ta'limini tashkil etishning korreksion pedagogik tizimining tarkibiy komponentlari.....	186
<i>Jo'raxo'jayev Muhammadazizxo'ja Xalilxo'ja o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalarining ahamiyati.....	190
<i>Umida Marasulova</i>	
Boshlang'ich funksiya va aniqmas integral.....	193
<i>Mirzayeva Shahlo, Isroilova Zahro, Erkinova Shahrizoda, Javliyeva Dilnura</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar adabiyoti kerakmi?!.....	196
<i>Dilfuza Shadiyeva</i>	
Experimental Study on the Psycho-Pedagogical Effectiveness of Mall-Based Multimodal Learning in Developing Pluricultural Competence	200
<i>Azimova Sevara Muzaffar qizi</i>	
Simulyatsion o'quv muhitida fizika o'qituvchilarining o'z-o'zini boshqarish va refleksiv kompetentligini oshirish	205
<i>Muradov Ilxomjon Abduxamid o'g'li</i>	
Ta'lim menejmentida strategik boshqaruv tushunchasining evolyutsiyasi.....	209
<i>Raximjonov Jamshid Rafiqjon o'g'li</i>	
Raqamli kompetentlik tushunchasining ilmiy-nazariy talqini va xorijiy hamda mahalliy tadqiqotlar tahlili	214
<i>Umirov Boboyor Baxtiyor o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyatlar samaradorligini oshirishda pedagogik multimedia vositalaridan foydalanish usullari.....	218
<i>Abdreimova Maftuna O'ktam qizi</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darsliklarining tuzilishi hamda o'quvchilar yoshiga muvofiqligi.....	223
<i>Bobolov Nuriddin Tojiyevich</i>	
Oliy ta'limda pedagoglarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar	228
<i>Isabekov Bahodir Isabek o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik masalalari .	233
<i>Boydavletova Sohiba Abduganiyevna</i>	
Aksiologik yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	239
<i>G'aybullayev Bobur Nomonjon o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati.....	243
<i>Toshpo'latova Muxlisa G'olib qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishning mazmuni va ilmiy-nazariy pedagogik asoslari.....	248
<i>Mamatqulova Saboxat Abduraxmonovna</i>	
Maktabgacha ta'limda monitoring va baholash tizimini takomillashtirish.....	253
<i>Amanova Durdona Kaxramonovna</i>	
O'zbekiston yoshlarining ma'naviy va estetik tarbiyasida tasviriy san'at va zamonaviy pedagogik texnologiyalar.....	257
<i>Esanova Hulkar Abdurayim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eksperimental-tajriba faoliyatini tashkil etish	261
<i>Gafurova Dilnoza Saloxiddinovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi xavfsizlik hissiga ta'sirining nazariy va amaliy tahlili	266
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Qoldiboyeva Xayriniso Eldarovna</i>	
Milliy o'yinlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari.....	269
<i>Ismatov Po'latjon Abdumannobovich</i>	
Ta'lim sifatini boshqarish jarayonida kvalimetrik parametrlarini takomillashtirishda xorijiy tajribalarning ahamiyati	273
<i>Karimova Maxbubaxon Mukimjonovna</i>	



Innovatsion ta'lim sharoitida bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli.....	278
<i>Mirzayeva Nigora Bozorovna</i>	
Matematika o'qitishda milliy qadriyatlarni aks ettirish	282
<i>Mirzayeva Shahlo, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi,</i> <i>Muxtorova Sevinch Asad qizi, Xolboyeva Mushtariy Zayniddin qizi</i>	
Ingliz tilida fe'l frazeoformalarining morfologik tuzilishiga xos umumiy xususiyatlar.....	285
<i>Jo'rayeva Nargiza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini o'stirishda interaktiv metodlarning ahamiyati.....	289
<i>Ramazonova Munisa Hoshim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining lug'at boyligini oshirishda intellektual o'yinlar va interfaol usullardan foydalanish.....	294
<i>Raxmonova Gulrux Ubaydullayevna, Ibragimova Dildora Turabovna</i>	
Maktabgacha ta'limda pedagoglar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda uslubiy xizmat va hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi.....	298
<i>S. A. Rahmonberdiyev</i>	
Yoshlarni destruktiv submadaniyatlar ta'siridan himoyalashning innovatsion pedagogik usullari	304
<i>Xasanova Marxabo Turayevna</i>	
Социально-психологические особенности домашнего насилия в условиях трансформации семьи и цифровизации общества	308
<i>Абдукадилова Лаура Юльбарсовна, Абдуллаева Азиза Комилжон кизи</i>	
Педагогические основы развития инновационной компетентности педагогов в системе дошкольного образования.....	315
<i>Гульнара Ахтямовна</i>	
Роль учебного процесса и творческой деятельности в сохранении психологического равновесия.....	320
<i>Коршубаева Рано Хазраткуловна</i>	



TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH JARAYONIDA KVALIMETRIK PARAMETRLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI



Karimova Maxbubaxon Mukimjonovna
 Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika
 universiteti Pedagogika kafedrasini o'qituvchisi

ORCID: ORCID: 0009-0009-9434-2872

Annotatsiya: Maqolada ta'lim sifatini boshqarishning kvalimetrik asoslari xorijiy davlatlar tajribasi misolida tadqiq etilgan. Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya, Germaniya va Buyuk Britaniya ta'lim tizimlarida qo'llaniladigan sifat o'lchash ko'rsatkichlari, baholash mezonlari hamda monitoring mexanizmlari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, zamonaviy kvalimetrik parametrlar to'rt darajali tizimga – kirish (input), jarayon (process), chiqish (output) va pirovard (outcome) ko'rsatkichlariga ajratiladi. Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim tizimi uchun moslashtirilgan 18 ta ko'rsatkichdan iborat integral indeks modeli taklif qilingan. Olingan xulosalar ta'lim sifatini boshqarishda faktga asoslangan qarorlar qabul qilish, maktab reytinglari va o'qituvchilar malakasini baholashda qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, kvalimetriya, sifat menejmenti, baholash mezonlari, integral indeks, xalqaro qiyosiy tadqiqotlar, PISA, TIMSS, ta'lim standartlari, monitoring.

Abstract: The article examines the qualimetric foundations of education quality management using the experience of foreign countries. A comparative analysis is presented of the quality measurement indicators, assessment criteria and monitoring mechanisms applied in the education systems of Finland, Singapore, South Korea, Germany and the United Kingdom. The findings indicate that contemporary qualimetric parameters are structured according to a four-level system – input, process, output and outcome indicators. The author proposes an integral index model comprising eighteen indicators, adapted for the general secondary education system of the Republic of Uzbekistan. The resulting recommendations may be applied in evidence-based decision-making, school rankings and the appraisal of teacher qualifications.

Key words: quality of education, qualimetry, quality management, assessment criteria, integral index, international comparative studies, PISA, TIMSS, educational standards, monitoring.

Аннотация: В статье исследованы квалиметрические основы управления качеством образования на примере зарубежных стран. Проведён сравнительный анализ показателей измерения качества, критериев оценивания и механизмов мониторинга, применяемых в образовательных системах Финляндии, Сингапура, Южной Кореи, Германии и Великобритании. По результатам исследования установлено, что современные квалиметрические параметры классифицируются по четырёхуровневой системе – входные (input), процессные (process), выходные (output) и результирующие (outcome) показатели. Автором предложена адаптированная для системы общего среднего образования Республики Узбекистан модель интегрального индекса, включающая 18 индикаторов. Полученные выводы могут применяться в принятии решений на основе данных, составлении рейтингов школ и оценке квалификации педагогов.

Ключевые слова: качество образования, квалиметрия, менеджмент качества, критерии оценивания, интегральный индекс, международные сравнительные исследования, PISA, TIMSS, образовательные стандарты, мониторинг.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimlari jahon miqyosida jadal sur'atlar bilan o'zgarib bormoqda. Globallashuv jarayonlari, raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va mehnat bozorida yangi kasbiy kompetensiyalarga bo'lgan talab ta'lim sifatini boshqarishning an'anaviy yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ta'lim sifati nafaqat pedagogik, balki iqtisodiy, ijtimoiy va strategik kategoriya sifatida e'tirof etiladi. Shu bois, ta'lim sifatini ob'ektiv o'lchash va boshqarish usullarini ilmiy asoslangan tarzda takomillashtirish dolzarb vazifalardan biriga aylangan.

O'zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha bo'lgan davrda ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi doirasida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu konsepsiyada nazarda tutilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun xorijda sinovdan o'tgan kvalimetrik yondashuvlarni o'rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Kvalimetriya (lot. "qualitas" – sifat va yun. "metreo" – o'lchayman) – turli ob'ektlar, jarayonlar va hodisalar sifatini miqdoriy jihatdan o'lchash bilan shug'ullanuvchi fanlararo soha hisoblanadi. Ta'lim kvalimetriyasi esa bu umumiy nazariyaning maxsus tarmog'i bo'lib, uning predmeti pedagogik jarayonlar va ularning natijalari sifatining miqdoriy mezonlarini ishlab chiqishdan iboratdir. Ushbu yo'nalishdagi dastlabki tadqiqotlar XX asrning 70-yillarida boshlangan bo'lib, hozirgi kunda OECD, UNESCO va Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan amaliy qo'llash uchun standart metodikalar shakllantirilgan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – rivojlangan davlatlar tajribasi misolida ta'lim sifatini boshqarishning zamonaviy kvalimetrik parametrlarini tadqiq etish va ular asosida O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimi uchun takomillashtirilgan integral model ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- *birinchidan*, ta'lim kvalimetriyasining nazariy-metodologik asoslarini ochib berish;
- *ikkinchidan*, xorijiy davlatlarda qo'llaniladigan sifat ko'rsatkichlari tizimini qiyosiy tahlil qilish;
- *uchinchidan*, milliy ta'lim tizimi uchun moslashtirilgan kvalimetrik parametrlar majmuini taklif etish.

Ta'lim sifatini kvalimetrik o'lchash muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlar bir necha yo'nalishda olib borilmoqda. Nazariy asoslarga bag'ishlangan tadqiqotlarda G. Azgaldov va A. Subettoning ishlari alohida o'rin tutadi – ularda kvalimetriyaning umumiy metodologik prinsiplari va uning pedagogik jarayonlarga tatbiqi nazariy jihatdan asoslangan. A. Subettoning "Umumiy kvalimetriya asoslari" monografiyasida sifatni o'lchashning tizimli-strukturaviy yondashuvi ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu yondashuv bugungi kunda keng qo'llanilmoqda.

G'arb tadqiqotchilari orasida M. Skrivenning formativ va summativ baholash konsepsiyasi, D. Stufflebimning CIPP (kontekst-kirish-jarayon-mahsulot) modeli hamda T. Guskey tomonidan ishlab chiqilgan professional rivojlanishni baholashning besh darajali modeli nazariy jihatdan yetakchi o'rinni egallaydi. Ushbu modellar ta'lim sifatini tizimli ravishda o'lchashning konseptual ramkalarini shakllantirgan.

Xalqaro qiyosiy tadqiqotlar doirasida OECD tomonidan amalga oshirilayotgan PISA (Programme for International Student Assessment), IEA tashkilotining TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) va PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) tadqiqotlari ta'lim natijalarini xalqaro miqyosda qiyoslash imkonini beradigan asosiy vositalar hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlarning metodologiyasi psixometrik asoslarga, xususan, zamonaviy test nazariyasi (IRT – Item Response Theory) tamoyillariga tayanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida ta'lim sifati muammolari bo'yicha so'nggi yillarda sezilarli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbekistonlik olimlardan U. Inoyatov, N. Muslimov, Sh. Sharipov, J. Yo'ldoshev va boshqalarning ishlarida milliy ta'lim tizimining sifat ko'rsatkichlari, o'qituvchilar malakasini oshirish va ta'lim muassasalarini baholash mexanizmlari o'rganilgan. Biroq, xorijiy kvalimetrik yondashuvlarni mahalliy sharoitlarga tizimli moslashtirish masalasi hali yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi:

- nazariy-qiyosiy tahlil – xorijiy va mahalliy adabiyotlarni qiyoslash,
- tizimli-strukturaviy tahlil – ta'lim sifati parametrlarini ierarxik tartiblash,
- ekspert baholash metodi – ko'rsatkichlar og'irlik koeffitsiyentlarini aniqlash,
- hujjatshunoslik metodi – normativ-huquqiy bazani o'rganish,
- matematik-statistik tahlil – integral indeks parametrlarini hisoblashda qo'llanildi.

Tadqiqotning empirik asosini OECD, UNESCO Statistika instituti va Jahon banki ochiq ma'lumotlar bazalaridagi 2015–2024-yillarga oid ko'rsatkichlar tashkil etadi.

Kvalimetrik parametrlarning klassifikatsiyasi

Zamonaviy ta'lim sifati menejmentida qo'llaniladigan kvalimetrik parametrlarni to'rt asosiy guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. **Kirish (input) parametrlari** – moliyaviy resurslar (bir o'quvchiga to'g'ri keladigan xarajat, YIMga nisbatan ta'lim xarajatlari ulushi), inson resurslari (o'qituvchilarning malakasi, pedagogik ish staji, o'qituvchi-o'quvchi nisbati), moddiy-texnik baza (laboratoriyalar, kutubxona fondi, raqamli infratuzilma);



2. **Jarayon (process) parametrlari** – o'quv dasturining sifati, pedagogik texnologiyalarning samaradorligi, o'qituvchi-o'quvchi o'zaro ta'sirining sifati, sinfdagi ijtimoiy-psixologik iqlim, differensial yondashuvning qo'llanilishi;
3. **Chiqish (output) parametrlari** – o'quvchilar bilim darajasi (milliy va xalqaro testlar natijalari), bitiruvchilar ulushi, oliy ta'lim muassasalariga qabul ko'rsatkichlari, kompetensiyalar shakllanganlik darajasi;
4. **Pirovard (outcome) parametrlari** – bitiruvchilarning mehnat bozorida muvaffaqiyati, fuqarolik va ijtimoiy faolligi, hayot davomida o'rganishga moyillik, ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar.

Finlandiya tajribasi. Finlandiya ta'lim tizimi jahon reytinglarida barqaror yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Bu muvaffaqiyatning asosida markazlashgan standartlashtirilgan testlardan voz kechib, maktablarning o'zini o'zi baholashi (self-evaluation) va hududiy ta'lim boshqarmalari darajasidagi sifat monitoringi yotadi. Finlandiya modelining o'ziga xosligi shundaki, bu yerda tashqi baholash vositalari o'qituvchilarga nisbatan nazorat quroli sifatida emas, balki metodik yordam vositasi sifatida qo'llaniladi. Ta'lim sifatining kalit ko'rsatkichlari sifatida tenglik indeksi (o'quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishi ta'siridan xolilik), maktablararo tafovut koeffitsiyenti va o'qituvchilarning professional avtonomiyasi darajasi qabul qilingan.

Singapur tajribasi. Singapur ta'lim vazirligi tomonidan School Excellence Model (SEM) nomli kompleks sifat baholash tizimi joriy etilgan. Ushbu model to'qqizta asosiy kriterial sohani qamrab oladi: rahbariyat, strategik rejalashtirish, o'quvchilarga yo'naltirilganlik, ma'lumotlar va bilimlarni boshqarish, kadrlar menejmenti, jarayonlarni boshqarish, o'quvchilar natijalari, kadrlar natijalari va maktabning ijtimoiy natijalari. Har bir maktab har olti yilda bir marta tashqi ekspertlar tomonidan baholanadi va rivojlanish yo'l xaritasini ishlab chiqadi. Singapurning yana bir o'ziga xos jihati – o'qituvchilarning professional rivojlanishiga yo'naltirilgan Enhanced Performance Management System tizimidir, unda pedagogik samaradorlik o'qituvchining 13 ta kompetensiya bo'yicha baholash natijalari asosida aniqlanadi.

Janubiy Koreya tajribasi. Janubiy Koreyada ta'lim sifati monitoringi uchun Korea Institute for Curriculum and Evaluation (KICE) tashkil etilgan bo'lib, u National Assessment of Educational Achievement (NAEA) dasturini amalga oshiradi. Mazkur dastur doirasida har yili 6-, 9- va 11-sinf o'quvchilarining namunaviy tanloviga akademik savodxonlik, matematik va tabiiy-ilmiy kompetensiyalar bo'yicha standartlashtirilgan baholash o'tkaziladi. Koreya tajribasining diqqatga sazovor jihati – sifat baholash natijalari asosida zaif maktablarga qo'shimcha moliyaviy va metodik yordam ko'rsatuvchi "teng imkoniyatlar grant" mexanizmining joriy etilganligidir.

Germaniya tajribasi. Germaniyada ta'lim sifatini ta'minlashning federal tizimi har bir yer (Land) miqyosidagi muvofiqlashtiruvchi institutlar orqali amalga oshiriladi. Milliy darajada Institut für Qualitätsentwicklung im Bildungswesen (IQB) tashkiloti ta'lim standartlariga muvofiqlikni monitoring qiladi. Germaniyaning dual kasb-hunar ta'limi modelida sifat ko'rsatkichlari sifatida bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi (employability), ish beruvchilarning kompetensiya bo'yicha qoniqish koeffitsiyenti va o'qish davomida amaliyotga jalb qilinganlik darajasi qabul qilingan.

Buyuk Britaniya tajribasi. Buyuk Britaniyada ta'lim muassasalarining sifatini baholashni Office for Standards in Education (Ofsted) tashkiloti amalga oshiradi. Ofsted inspeksiya to'rt asosiy sohani qamrab oladi: ta'lim sifati, o'quvchilar xatti-harakati va munosabatlari, shaxsiy rivojlanish, rahbariyat va boshqaruv. Baholash natijasi to'rt darajada beriladi: "Outstanding" (a'lo), "Good" (yaxshi), "Requires Improvement" (takomillashtirishga muhtoj) va "Inadequate" (qoniqarsiz). Inspeksiya natijalari ochiq e'lon qilinib, ota-onalarning maktab tanlashidagi asosiy ma'lumot manbai hisoblanadi.

1-jadval: Xorijiy davlatlardagi ta'lim sifati kvalimetrik tizimlarining qiyosiy xususiyatlari

Davlat	Asosiy baholovchi institut	Yondashuv turi	Asosiy vosita	Natijalarning oshkoraligi
Finlandiya	Ta'lim boshqarmasi (OPH)	O'zini o'zi baholash + hamkasbiy baholash	Maktabning yillik hisoboti	Umumlashtirilgan, anonim
Singapur	Ta'lim vazirligi (MOE)	Tashqi audit (SEM)	9 ta kriterial soha	Qisman ochiq
Janubiy Koreya	KICE	Markazlashgan NAEA testlari	6-, 9-, 11-sinflar tanlovli baholash	Mintaqaviy darajada
Germaniya	IQB + yer institutlari	Federal-mintaqaviy monitoring	Ta'lim standartlariga muvofiqlik	Umumlashtirilgan
Buyuk Britaniya	Ofsted	Davriy inspeksiya	4 ta baholash sohasi	To'liq ochiq

Taklif etilayotgan integral indeks modeli. Xorijiy tajribalarni tahlil qilish natijasida O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim muassasalarining sifatini baholash uchun to'rt blokdan iborat integral indeks modelini taklif etamiz. Model tarkibidagi 18 ta ko'rsatkich quyidagicha taqsimlangan:

Birinchi blok – “Resurs va sharoitlar” (og‘irligi 0,20):

- bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan xarajat;
- malakaviy toifaga ega o‘qituvchilar ulushi;
- raqamli ta‘lim resurslariga ruxsat darajasi;
- sinf to‘ldirilish koeffitsiyenti.

Ikkinchi blok – “Ta‘lim jarayoni sifati” (og‘irligi 0,25):

- o‘quv dasturi zamonaviyligi indeksi;
- pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash darajasi;
- o‘quvchilar bilan individual ishlash koeffitsiyenti;
- sinfdagi psixologik iqlim ballari;
- ota-onalarning jarayonga jalb etilganligi.

Uchinchi blok – “Ta‘lim natijalari” (og‘irligi 0,35):

- asosiy fanlar bo‘yicha bilim darajasi milliy baholash natijalari;
- xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok va natijalar;
- funksional savodxonlik darajasi;
- bitiruvchilarning oliy ta‘limga qabul ulushi;
- maktab bitirish imtihonlari natijalari.

To‘rtinchi blok – “Pirovard ta‘sir” (og‘irligi 0,20):

- bitiruvchilarning uch yillik ta‘lim traektoriyasi;
- o‘quvchilar va ota-onalar qoniqish indeksi;
- o‘qituvchilarning maktabda barqaror ishlash koeffitsiyenti;
- ta‘lim muassasasining mintaqaviy reytingi.

Ko‘rsatkichlarning og‘irlik koeffitsiyentlari ekspert baholash metodi asosida aniqlanadi va muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqilishi ko‘zda tutiladi.

Umumiy integral indeks quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$I = \sum (w_i \cdot P_i)$$

bunda

w_i – i-ko‘rsatkichning og‘irlik koeffitsiyenti,

P_i – i-ko‘rsatkichning normallashtirilgan qiymati (0 dan 1 gacha).

Olib borilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ta‘lim sifati boshqarishning kvalimetrik parametrlarini ishlab chiqishda oddiy nusxa ko‘chirish yondashuvi samara bermaydi. Xorijiy modellarning har biri o‘z ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va tarixiy kontekstida shakllangan. Masalan, Finlandiyaning o‘zini o‘zi baholash modeli o‘qituvchilarning yuqori professional avtonomiyasi va ijtimoiy ishonch darajasiga asoslanadi; Singapur modeli davlatning kuchli strategik rejalashtirishga bog‘liq; Buyuk Britaniyaning Ofsted tizimi esa ochiq axborot va ota-onalarning maktab tanlashida faol ishtiroki mantig‘ida ishlaydi.

O‘zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni moslashtirishda bir necha muhim omilni hisobga olish lozim: mintaqalar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar, shahar va qishloq maktablarining turli imkoniyatlari, o‘zbek, rus, qoraqalpoq va boshqa tillarda ta‘lim olayotgan muassasalarning lingvistik xususiyatlari. Shu sababli taklif etilayotgan integral indeks modeli yagona mezonda emas, balki “o‘xshash guruhlar ichida qiyoslash” (like-for-like) tamoyilida qo‘llanilishi lozim.

Kvalimetrik yondashuvning yana bir muhim jihati – uning maqsadini to‘g‘ri tushunishdir. Sifat ko‘rsatkichlarining vazifasi maktablarni jazolash yoki “yaxshi” va “yomon”ga ajratish emas, balki tizimdagi zaif zanjirlarni aniqlash va ularga maqsadli ravishda resurs va metodik yordam yo‘naltirishdir. Ushbu yondashuv Janubiy Koreyaning teng imkoniyatlar granti mexanizmida samarali tarzda amalga oshirilgan va o‘rganishga arziydi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, zamonaviy ta'lim kvalimetriyasi to'rt darajali (kirish – jarayon – chiqish – pirovard) tuzilmaga ega bo'lib, uning asosida tizimli yondashuv va evidenciya asosida boshqaruv tamoyillari yotadi. Birgina o'quvchilar test natijalariga tayanib ta'lim sifatini baholash metodologik jihatdan cheklangan yondashuv bo'lib, u zamonaviy talablarga to'liq javob bermaydi.

Ikkinchidan, rivojlangan davlatlar tajribasi ta'lim sifatini boshqarishda tashqi baholash va ichki baholashning mutanosib uyg'unligi muhimligini ko'rsatadi. Shunga mos ravishda O'zbekistonda ham ta'lim sifati inspeksiya mexanizmi bilan bir qatorda maktablarning o'zini o'zi baholash institutini faol joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, maqolada taklif etilgan 18 ta ko'rsatkichdan iborat integral indeks modeli O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida pilot loyiha sifatida sinovdan o'tkazilishi, uning natijalari asosida takomillashtirilishi va milliy ta'lim sifati monitoringining tarkibiy qismi sifatida qabul qilinishi mumkin.

To'rtinchidan, kvalimetrik monitoring tizimini joriy etish o'qituvchilar va rahbar kadrlarning ma'lumotlar tahlili bo'yicha kompetensiyalarini oshirish bilan birga olib borilishi zarur. Aks holda, yig'iladigan ma'lumotlar formal xarakter kasb etadi va real boshqaruv qarorlariga ta'sir ko'rsatmaydi.

Kelgusi tadqiqotlarda taklif etilayotgan modelni empirik sinovdan o'tkazish, ko'rsatkichlar og'irlik koeffitsiyentlarini Delfi metodi asosida aniqlashtirish hamda integral indeks natijalarini xalqaro qiyosiy baholash ko'rsatkichlari bilan korrelyasion tahlil qilish rejalashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azgaldov G.G., Kostin A.V., Sadovov V.V. Kvalimetriya uchun mutaxassislar. – M.: INFRA-M, 2020. – 320 b.
2. Subetto A.I. Kvalimetriya: nazariya, metodologiya, amaliyot. – SPb.: Astreya-sentr, 2021. – 464 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: www.lex.uz.
4. OECD. PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 456 p.
5. Sahlberg P. Finnish Lessons 3.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland. – New York: Teachers College Press, 2021. – 288 p.
6. Ng P.T. Learning from Singapore: The Power of Paradoxes. – London: Routledge, 2017. – 192 p.
7. Stufflebeam D.L., Zhang G. The CIPP Evaluation Model: How to Evaluate for Improvement and Accountability. – New York: Guilford Press, 2017. – 371 p.
8. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in education – A tool on whose terms? – Paris: UNESCO, 2023. – 432 p.
9. Ofsted. Education Inspection Framework. – Manchester: Ofsted, 2023. – 48 p.
10. Inoyatov U.I. Ta'lim menejmenti va ta'lim sifati. Toshkent: Fan, 2019. 256 b.
11. Muslimov N.A. Pedagogik kvalimetriya asoslari. Toshkent: TDPU, 2020. 184 b.
12. Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim sifatini baholashning zamonaviy yondashuvlari // Pedagogika va psixologiya muammolari. – 2022. – № 3. – B. 45–52.
13. Scheerens J. Educational Effectiveness and Ineffectiveness: A Critical Review of the Knowledge Base. – Dordrecht: Springer, 2016. – 408 p.
14. Korea Institute for Curriculum and Evaluation (KICE). National Assessment of Educational Achievement: Technical Report. – Seoul: KICE, 2022. – 120 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.